



TIBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MASHG'ULOTLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Boyqo'ziyev X.X. – Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Gistologiya,
Sitologiya va Embriologiya kafedراسи dotsenti,

Dehqonova N.T. - Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Gistologiya,
Sitologiya va Embriologiya kafedراسи katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni bosqichma-bosqich amalga oshirish, ilg'or tajribalarga tayangan holda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish va ilmiy-uslubiy innovatsion texnologiyalardan foydalanib mashg'ulot samaradorligini oshirish usullari ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari innovatsion ta'lim texnologiyasining asoslari va hayotimizga chuqur kirib kelayotgan internet tizimini keng joriy qilish, milliy axborot resurslarini shakllantirish chora-tadbirlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ta'limni isloh qilish, innovatsion texnologiyalar, ta'lim sifati.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni zamonaviy ilmiy tafakkur yutuqlariga, ilg'or tajribalarga tayangan holda tibbiyot oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayonini ta'minlovchi omil, hamda ilmiy – uslubiy texnologiya sifatida amalga oshirishdan iboratdir. Pedagog o'z mutaxassisligi bo'yicha o'zlashtirgan bilimlardan qat'iy nazar, ijtimoiy, pedagogik-psixologik bilimlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublar yig'indisi bo'lgan zarur pedagogik ko'nikmalarni egallagan bo'lishi lozim.

Hozirgi davrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, shu bilan bir qatorda bugungi kunda hayotimizga chuqur kirib kelayotgan internet tizimini keng joriy qilish, yoshlarimizni boy tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, yuksak axloqiy, insoniy fazilatlar va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xizmat qiladigan milliy axborot resurslarini shakllantirish doimo e'tiborimiz markazida turishi lozim.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari quyidagilarga asoslangan:

1. Ta'limning har bir shaxsga yo'naltirganlik va tizimli yondashuv, ta'lim subyektlari munosabatlarini demokratlashtirilishi va insonparvarlashtirilishiga;
2. Ta'limda talabalarning roli o'zgarishiga, ya'ni o'quv faoliyatini mustaqil olib boruvchi ta'lim jarayonining teng huquqli subyekti ekanligiga;





3. Ta'limda o'qituvchining roli o'zgarishiga, ya'ni mustaqil o'quv faoliyatining tashkilotchisi va talabalarining savodli maslahatchisi bo'lishiga va talabalar bilimi, ko'nikmalari, mahoratlarning nazoratini hamda ehtimolli og'ishlarni o'z vaqtida to'g'rilash maqsadida ularning bilim darajasini aniqlashga;

4. Ta'limning uslublari va vositalarining o'zgarishiga, ya'ni muammoli holatlar, faol ijodiy-tadqiqiy faoliyatini yaratishga asoslangan, muamolarni qidirish va yechish, bilimlarni amalda qo'llashga yo'naltirilgan interfaol usullar an'anaviy bo'lib borishiga, jamoa va guruhlarda ishlash keng qamrovli ta'lim shakli sifatida qo'llanilishiga, axborot texnologiyalari ta'limning an'anaviy vositalari bilan bir qatorda keng qo'llanilishiga, o'quv materiallari ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni mustaqil o'rganish uchun keng foydalanishiga;

5. Pedagogik boshqarish uslublari va vositalarining o'zgarishiga, ya'ni o'qituvchi muammolarni aniqlash, g'oyalarni regeneratsiya qilish, qarorlarni qabul qilishga qodir va ularning amalga oshishiga mas'uldor menejerga aylanmog'i darkor. U nafaqat pedagogik, balki talabalarining o'quv faoliyatini ham bashoratlaydi, loyihalashtiradi va rejalashtiradi, ya'ni qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va o'quv faoliyatining rejalashtirilgan natijalariga erishish bo'yicha qo'shma faoliyat tizimi va mazmunini ishlab chiqadi. Bashoratlash, loyihalashtirish, rejalashtirish, o'quv faoliyatini tashkillashtirishda talabalarni qo'llab-quvvatlaydi va ta'lim jarayonining o'quv dialogi hamda polilogi sifatini shakllantiradi.

“Texnologiya” yunoncha so'zdan kelib chiqqan bo'lib “texno” - mahorat, san'at, malaka va “logos” - so'z, ta'limot ma'nolarini anglatadi.

Ta'limni texnologiyalashtirish – bu o'qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta'lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo'nalishdir.

Ta'lim texnologiyasi: Bu - mavjud sharoit va o'rnatilgan vaqtda belgilangan ta'limiy maqsad va ko'zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishning vositali ta'minlovchi, muloqot, axborot, boshqaruvning eng qulay yo'li va o'qitish vositalarining tartibli yig'indisidir (ta'lim berish texnologiyasining jarayonli – bayonli jihati).

“Pedagogik texnologiya” - pedagogik hodisa va ta'limni texnologiyalashtirish sohasidagi jarayonda qo'llaniladigan tushuncha.

“Ta'limdagi innovatsiya” - bu mavjud ta'lim-tarbiya tizimini zamonaviylashtirish orqali uni isloh qilish va takomillashtirishdir.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-1

“Pedagogik mahorat “bu pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlaridir.

Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish quyidagilarga erishishga imkon beradi:

1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanib, tibbiy biologik fanlarni o‘rganish – talabalarda zaruriy ko‘nikmalarni hosil qilish imkoniyatini beradi. Talabalarni ta'lim subyekti sifatida faollashtiradi.

2. Dastur asosida muloqotli ta'lim olish talabalarning tibbiy biologik fanlarga qiziqishini oshiradi;

3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanib o‘quv jarayonini jadallashtirishga erishiladi.

4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etib quyidagi natijalarga erishish ko‘zda tutiladi:

– o‘quv materialini o‘zlashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqligi, materialni mantiqiy bo‘limlarga ajratish va ularning har birini mos metodika yordamida o‘rganish, tizimlashtirish, takrorlash, mustahkamlash va talabalar bilimini tekshirish;

– talabalar tomonidan o‘quv materiallarini chuqurroq tushunishlari;

– tibbiy biologiya fanlarini o‘rganishni ijodiy jarayonga aylantirish;

– talabalar tomonidan bajarilgan mustaqil ishlarni nazorat qilish, baholash va sifatli bajarganlarni rag‘batlantirish;

– o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan o‘quv axborot hajmi va harakatini, talabalar bilim darajalarini rivojlanishi va hayotiy tajribasini hisobga olgan holda, ta'limdagi aniq vazifalarni belgilash.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimini isloh qilish, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ni bosqichma-bosqich amalga oshirish, ilg‘or tajribalarga tayangan holda, ta'lim jarayoniga internet tizimini, innovatsion texnologiyalarni va milliy axborot resurslarini joriy qilib ta'lim sifati, mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarning ta'lim muassasalariga joriy etilishi, har tomonlama samarali hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimida bu texnologiyani joriy qilish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-1

1. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Toshkent. 1997 yil 29 avgust.
2. Avliyoqulov N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent. 2008 yil.
3. Boyqo'ziyev H. X., Bobojanova SH.SH., Dehqonova N.T., Djurakulov B.I., Ismoilova N.A. "Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida tibbiy biologik fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish». Samarqand 2019. 51 bet
4. Bobojanova Sh.Sh. Patologiya fanini o'qitishda interfaol usullarni qo'llab mashg'ulot samaradorligini oshirish. Toshkent. 2016 yil.
5. Ishmuxammedov R., Abduqodirov R. Innovasion texnologiyalar . Toshkent. 2007 yil.
6. Ishmuxammedov R., Pardaev A., Abduqodirov A. Ta'limda innovasion texnologiyalar. Toshkent. 2008 yil.
7. Maxsudov S.N. va boshqalar . Tibbiyot ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qullanilishi . Toshkent. 2016 yil.
8. Raximov B. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. Toshkent. 2009 yil.
9. Saidaxmedov N., Abduraximov S. Pedagogik texnologiyalar, pedagogik mahorat. Toshkent. 2010 yil.
10. Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent. 2005 yil.

